

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2
MAXSUS SON

2026

MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 57 sahifa,
mart, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI	8
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TAHLILI.....	12
Go'zal Samadova Solik qizi, Husan Normurodov	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	17
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich, Aytmuratova Ulbike	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SEKTORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	21
Abduxalilov S.A., Normurodov X.E.	
ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	27
Абдумажидов Шохжахон Шухратович, Захидов Шухрат Шокирович, Насиров Дилшод Фархадович	
СТЕЙБЛКОИНЫ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО ПОСРЕДНИЧЕСТВА	31
Бахтиярова А.Б., Алиева С.С.	
TASHKILOT AXBOROT TIZIMLARINI KVANT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHDA POST-KVANT KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNI QO'LLASH.....	38
G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi, Tursunova Sadoqat Abdusalom qizi	
CHORVACHILIKDA QIYMAT ZANJIRI: BARQARORLIK VA DAROMAD	44
Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahammatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI	50
Sarsengalieva Albina Askar Qizi, Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING IJTIMOIIY- IQTISODIY AHAMIYATI

Jumaniyazov Rashid Azamatovich

Qoraqalpoq davlat universiteti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar mutaxassisligi 2^b guruh talabasi

Ilmiy rahbar:

Ismailov Baxit Abdireymovich

Qoraqalpoq davlat universiteti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasida dotsenti, PhD.

E-mail: Ismailov_Bakhit79@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish masalalari, xizmat ko'rsatish korxonalarining tashkiliy-boshqaruv faoliyati hamda uning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, xizmat ko'rsatish korxonalari, samaradorlik, iqtisodiy islohotlar, milliy iqtisodiyot, unumdorlik, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, mehnat samaradorligi, iqtisodiy o'sish, intensiv va ekstensiv omillar, mehnat unumdorligi.

Abstract: This article examines the issues of effective development of the service sector, the organizational and managerial activities of service enterprises, and their specific characteristics.

Keywords: service sector, service enterprises, efficiency, economic reforms, national economy, productivity, socio-economic efficiency, labor efficiency, economic growth, intensive and extensive factors, labor productivity.

Аннотация: В данной статье исследованы вопросы эффективного развития сферы услуг, организационно-управленческая деятельность предприятий сферы услуг, а также их специфические особенности.

Ключевые слова: сфера услуг, предприятия сферы услуг, эффективность, экономические реформы, национальная экономика, производительность, социально-экономическая эффективность, эффективность труда, экономический рост, интенсивные и экстенсивные факторы, производительность труда.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha faoliyatlar majmui sifatida namoyon bo'ladigan xizmat ko'rsatish sohasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi turli xizmatlarga bo'lgan ortib borayotgan ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi hamda yangi ish o'rinlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslardan oqilona foydalanish yo'llarini aniqlovchi muhim vositalardan biri sifatida ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) samaradorligini oshirishning manbalari va omillarini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bunda xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishni hamda ularning turli xil ehtiyojlarini to'liq qondirishni nazarda tutadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonda iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblangan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va aholining turli xil ehtiyojlarini qondirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni tahlil qilishda uning unumdorlik bilan o'zaro bog'liqligini baholash muhim ahamiyatga ega. Bunda unumdorlik umumiy samaradorlikni aniqlashda miqdoriy yondashuvni ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.



Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarining milliy va xalqaro bozorlardagi mavqeini hamda raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va ular eksporti hajmini kengaytirish sohada iqtisodiy o'sishga erishishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, xizmatlar tavsifi va tasnifi, xizmat ko'rsatish korxonalarida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari, korxonalarda ishchi-xodimlar mehnatidan samarali foydalanish, mehnat samaradorligi va unumdorligini oshirish, xizmat ko'rsatish intensivligini ta'minlash, servis korxonalarida xizmatlar sifatini oshirish orqali iste'molchilar talabini to'liq qondirish, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanish omillari va xususiyatlari hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini tashkil etishga oid tadqiqotlar Arabov N.U., Artikov Z.S. [1], Belyayev K.K. [3], Tepliskiy V., Kostyukovskiy Yu. [7], Rubsova N.V. [6], Vesnin V.R. [4], Tkachenko A.A. [8], Yerofeyeva A.P. [5], Barinov N.A. [2], Urakov J.R. [9] larning ilmiy asarlarida o'rganilgan.

Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xususiyatlari va mavjud sharoitlarga bog'liq bo'lib, bir qator omillar ta'siri bilan belgilanadi. Ushbu omillarni sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholash, shuningdek, ularning har birining iqtisodiyot soha va tarmoqlari rivojlanishiga ta'sirini aniqlash muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotning asosiy soha va tarmoqlarida iqtisodiy o'sishning omilli tahlilini amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad iqtisodiy o'sishning intensiv va ekstensiv omillarining soha hamda tarmoqlar iqtisodiy o'sishiga ta'sirini aniqlashdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiyot soha va tarmoqlarida iqtisodiy o'sishni baholashda iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga dialektik hamda tizimli yondashuvlar, kompleks baholash, qiyosiy, solishtirma va omilli tahlil, shuningdek, statistik va dinamik yondashuvlar hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

Iqtisodiyot soha va tarmoqlarida iqtisodiy o'sishning intensiv va ekstensiv omillarining iqtisodiy o'sishga ta'siri baholanib, iqtisodiy o'sish dinamikasining umumiy indeksi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarda samaradorlikni tahlil qilishda uning unumdorlik bilan o'zaro aloqadorligini baholash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda unumdorlik umumiy samaradorlikni aniqlashda miqdoriy yondashuvni belgilovchi ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi.

Hozirgi davrda mehnat unumdorligining yangi konsepsiyasi xarajatlarni kamaytirishga asoslangan, vaqt jihatidan kengayib boradigan samarali va doimiy imkoniyatlarga ega bo'lgan iqtisodiy resurslar tejamkorligini nafaqat o'z-o'zidan, balki iste'mol jarayonida ishtirok etuvchi insonning rivojlanishidagi sifat o'zgarishlari orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu konsepsiya ishlab chiqarish jarayonining muhimligini ta'kidlaydi va istiqbolli ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltirishni talab etadi.

Mehnat unumdorligini oshirish nafaqat yalpi ichki mahsulot dinamikasini aniqlashga yordam beradi, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish tamoyillariga ham javob beradi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv jarayonining pirovard natijalari mezonini belgilaydi. Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligini oshirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish mutanosibliklarini, shuningdek, ularning bozordagi muvozanat shartlariga muvofiqligini nazorat qilish imkonini beradi.

Xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida mehnat unumdorligini hisoblashda tarmoqda yaratilgan yalpi mahsulot hajmi jami tarmoqda band bo'lganlar soniga nisbatan aniqlanadi.

$$MU_T = \frac{YM}{B}, \quad (1)$$

Bu yerda:

MU_T – xizmat ko'rsatish tarmog'ida mehnat unumdorligi ko'rsatkichi,

YM – tarmoqda yaratilgan yalpi mahsulot,

B – tarmoqda bandlar soni.

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida mehnat unumdorligini aniqlashning ushbu ko'rsatkichini joriy etish quyidagilarga asoslanadi:

1. Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyatning bir qancha turlari bo'yicha xizmatlarni ishlab chiqishning natura ko'rsatkichlarini qo'llash unumdorlikni hisoblash jarayonini murakkablashtiradi.



2. Respublikamiz milliy hisoblari tizimi tamoyillariga muvofiq statistika uchun ishchi-xodimga xarajatlar va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi kabi ko'rsatkichlar o'rtasida bevosita aloqani aniqlash imkoniyati mavjud emas. Mazkur ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni moddiy ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida aniqlash mumkin. Xizmat ko'rsatish sohasining asosiy tarmoqlarida yalpi mahsulot hajmi ishchi kuchining qiymatida sarf-xarajatlar asosida aniqlanadi va yalpi qo'shilgan qiymat bilan mehnat sarfi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Shu sababli, ko'pincha iqtisodiy samaradorlik nolga yaqin bo'ladi va ba'zan noldan past bo'lish ehtimoli ham mavjud. Shuning uchun xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligini hisoblashda tarmoqdagi band bo'lgan ishchi-xodimlar statistikasi asos sifatida qo'llaniladi.

3. Taqdim etilayotgan tarmoqdagi statistik ma'lumotlarni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash maqsadida yagona usul va yagona statistik baholash asosida amalga oshirilishi zarur. Mazkur holatda ishlab chiqarilgan xizmatlar, ishchi-xodimlarning o'rtacha soni va asosiy fondlar qiymati turli darajadagi va turli tarmoq ko'rsatkichlariga moslashtiriladi.

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yalpi qo'shilgan qiymat (YQ) qiymatga ega ko'rsatkich bo'lganligi sababli deflyator (taqqoslash) usuli qo'llaniladi, ya'ni yalpi qo'shilgan qiymat hajmi taqqoslama ko'rinishda ifodalanadi. Qiymat ko'rsatkichlarini solishtirish maqsadida deflyatorlardan (taqqoslanuvchi indekslardan) foydalaniladi.

Xizmat ko'rsatish jarayoni – bu xizmat ko'rsatuvchining iste'molchi bilan o'zaro munosabatda bo'ladigan faoliyatidir. Ushbu jarayon tarmoq korxonalarining iqtisodiy resurslari orqali ta'minlanadi. Xizmat ko'rsatish jarayoni tarkibiga iste'molchilarning buyurtmalarini tahlil etish, loyihalarni ishlab chiqish (tashkiliy-texnik vazifalar), xizmat ko'rsatish jarayonini realizatsiya qilish, xizmat sifatini oshirish va ularni iste'molchilarga yetkazish tartibi va sharoitlari kiradi.

Xizmat ko'rsatish korxonasi faoliyatining samaradorligi rahbarlarning tashkiliy-boshqaruv va tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etishiga bog'liq. Xizmat ko'rsatish korxonasining tashkiliy-boshqaruv faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi [16]:

- xizmat ko'rsatish korxonasining faoliyatini rejalashtirish, xizmatlar bozori kon'yunkturasining yoki xizmatlar assortimentining o'zgarishi natijasida korxona rivojlanishining istiqbolini belgilash;
- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlarini baholash;
- xizmatlar assortimenti va sifat darajasini inobatga olgan holda texnologik asbob-uskunalar va texnik vositalar tarkibini optimallashtirish;
- iste'molchilar bilan ishlash uchun ijtimoiy-psixologik layoqatga ega mutaxassislarni tanlash;
- xizmat ko'rsatish xodimlari kasbiy mahorati va malaka darajasini oshirish;
- mehnat unumdorligini oshirish hisobiga intensiv rivojlanishni ta'minlash;
- ishlab chiqarish jarayoni va xizmat ko'rsatish faoliyatini texnik qurollantirish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarajatlari samaradorligini baholash;
- xizmat ko'rsatish natijalarini oshirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotni, xususan, uning tarkibiy qismi sifatida xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, buning asosida kelgusida aholi farovonligini oshirish va ularning turli xil talablarini to'liq qondirish asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyat rivojlanish tendensiyasi asosan sanoat rivojlanishidan keyingi bosqichga xos bo'lib, unda iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarini, xususan, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Bunda asosiy resurs sifatida intellektual salohiyatdan samarali foydalanish orqali fan sig'imi yuqori bo'lgan zamonaviy sohalar va tarmoqlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ijtimoiy taraqqiyotdagi ushbu jarayon iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanishini talab qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AQSH iqtisodiyotida jami ish o'rinlarining 80 %i xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, mazkur sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning 85 %i yuqori malakaga ega kadrlar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, iqtisodiyot soha va tarmoqlarida, xususan, xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni aniqlash kompleks yondashuvni talab qiladi va iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlashni zarur qiladi. Jahon amaliyotidagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv tobora keng qo'llanilmoqda va xizmat ko'rsatish sohasining samarali rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arabov N.U., Artikov Z.S. Servis korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali. – Samarqand: SamDU, № 1, 2021. – 153–164 b.
2. Беляев К.К. Проблемы измерения затрат и результатов на предприятии. – Иркутск: ИГЭА, 1999. – 104 с.



3. Веснин В.Р. Управление персоналом. Теория и практика. – М.: Проспект, 2011. – 688 с.
4. Ерофеева А.П. Модернизация системы управления персоналом на предприятиях сферы услуг. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Великий Новгород, 2014. – 141 с.
5. Рубсова Н.В. Оценка эффективности сервисной деятельности. // Дисс. канд. экон. наук. – Иркутск, 2006. – 171 с.
6. Теплицкий В., Костюковский Ю. Как оценить инвестиционную привлекательность предприятия. // Деловая жизнь, 1993. – № 9. – С. 11–18.
7. Ткаченко А.А. Занятость и экономика: политика государства в переходный период. – М.: ООО «Информграф», 2000. – 215 с.
8. Urakov J.R. Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi (Samarqand viloyati misolida). // Diss. iqt. fan. nomzodi. – T.: SamISI, 2011. – 79–80 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100